

FORTEPIANO IJROCHILIGI ASOSIDA BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING IJRO TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Normurodova Lobar Mamasoliyevna

*Navoiy davlat universiteti Pedagogika nazariyasi. Pedagogik
ta'limotlat tarixi yo'nalishi tayanch doktoranti*

Yuldoshev.U.Y

Ilmiy rahbar: PhD, v b professor

Anotatsiya: *ushbu tezisdagi fortepiano ijrochiligida yuqori sinf o'quvchilarining ijro texnikasini rivojlantirish yo'llari, usullari va ehtimoliy kamchiliklardan saqlanish to'g'risida fikr yuritilgan. O'quvchilarning musiqiy asbobdagi ijroda gavda tuzilishini (postanovka) to'g'ri qo'yishning ahamiyati va turli usullarda mashq qilishda bu haqida bilishning zarurligi masalasi.*

Kalit so'zlar: *fortepiano, ijro texnikasini rivojlantirish, gavda va qo'llarni to'g'ri qo'yish*

Аннотация: *В данной тезисе рассматриваются пути, приемы и способы развития исполнительской техники старшеклассников в фортепианном исполнительстве, позволяющие избежать возможных недочетов. О важности правильной постановки строения туловища (постановки) на музыкальном инструменте у учащихся и о необходимости знать об этом при упражнении на прямом.*

Ключевые слова: *фортепиано, развитие техники исполнения, правильное положение туловища и рук*

Anotation: *this thesis focuses on ways, methods, and avoidance of possible flaws in the development of performance techniques by upper-class students in piano performance. About the importance of correctly laying the structure of the torso (postanovka) on the musical instrument of students and the need to know about it when practicing in the piano*

Keywords: *piano, development of performance techniques, correct laying of the torso and arms*

Musiqiy asarni har tamonlama mukammal ijro etishda ijrochining texnik mahorati muhim hisoblanadi. Bunda asarning tempi, dinamikasi, ritmik jihatdan to'g'riligi, tovush xususiyatlari asosiy o'rinlardadir. Ba'zan o'quvchilarning ijrosini eshita turib ushbu asarni ijro etishda uning texnikasidagi kamchiliklar yaqqol namoyon bo'layotganini sezish mumkin. Barchaga ma'lum bo'lganidek, yaxshi texnikaga qisqa muddatda erishib bo'lmaydi, buni xususan musiqachilar yaxshi tushinadi. Buning uchun mehnat, sabr, intizom va vaqt kerak bo'ldi. Yana bir muhim tomonlaridan biri xohish.

O'quvchining o'zida texnikasini yaxshilash uchun kuchli xohish bo'lsagina ustoz bergan bilimlar yordamida texnikasini rivojlantirish mumkin. Hattoki, juda sezilarli tomonga.

Fortepiano ijrosidagi ijrochi texnikasining biroz bo'lsagina yaxshi tomonga o'zgarganini tinimsiz mehnat bo'lsagina bir necha oylarda sezish mumkin.

Pionistning ijro texnikasini yaxshilash tog'risida bir qancha foydali adabiyotlar bor, bunga E. Liberman yoki G G Neygauz kabi mashhur musiqachilarni kiritish mumkin. Albatta, bu adabiyotlar bilan pedagoglar yaxshi tanish va ushbu qo'llanmadan yaxshi natijalar olish mumkin. E. Liberman ning tavsiya etgan usullari ijro texnikasini rivojlantirishda birinchi navbatda postonovkadagi kamchiliklarni to'g'irlashdan boshlanadi. Bunda barmoqlarning holatidan boshlab gavda va yelkalar, oyoqlarni to'g'ri qo'yishgacha bo'lgan holatlar aytib o'tilgan. Bu albatta juda to'g'ri yo'l, chunki noto'g'ri postonovka bilan asarni mukkamal ijro etib bo'lmaydi. Bu asarning notekis, ritmik jihatdan to'g'ri bo'lmagan ijro bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, barmoqlari yoyiq va barmoqning uchi yani sezgir nuqtalari bilan emas, yotiq barmoqlar bilan chalish tempga katta ta'sir etadi ayniqsa tez templi asarlarda tezlashish qiyin, shtirixlarni to'g'ri chiqarish ham. Barmoqlarning uch suyak holati; sezgir nuqtalar bilan chalish; yelkani erkin, qismasdan qo'yish; tirsaklarni yelka kengligidan biroz ochish (buni huddi suv quvurlaridan erkin oqayotgan suvga qiyoslash mumkin. Quvurda hech qanday egilish, bukilish bo'lmasa suv yaxshi oqadi. Yelkadan barmoqlarga kelayotgan kuch ham shunday, agar tirsak qisib turilsa yetarli kenglikda ochilmasa kuch barmoqlarga yetarlicha kelmaydi va qo'llarda charchoq, og'riq va erkinlik bo'lmaydi) gavgdani tik tutish, oyoqlarni to'g'ri qo'yish katta ahamiyatga ega.

Keyingi qism to'g'ri sanoq, shtrixlar, dinamika, tovush xususiyati. Ba'zida ijrochining piano chalaman deb o'sha tovushni chiqara olmay qolishi holatini kuzatishimiz mumkin. Bunda ijrochi klavishni bossa ham tovush chiqmaydi. Ba'zida esa forte qism haddan ziyod urib yuborishini kuztamiz. Ha ikki holat ham ijrochida ijro texnikasi yetarlicha emasligini ko'rsatadi.

Bir qancha vaqt oldin ayrim musiqashunoslar fortepianoda texnik mashqlar davomida masalan Ganon mashqlarini chala turib barmoqlarni huddi sportchilardik harakat qildirishni o'zi kifoya miyani boshqa narsalarga masalan kitob o'qishga jalb qilish mumkin deb hisoblashgan. E. Libermanning ta'kidlaganidek barmoq va miya uzviy bog'liq. Barmoqlarimiz harakatini miyamiz boshqaradi va bu tibbiy tomondan ham isbotlangan. Yuqoridagi kabi mashqlar ijrosi paytida fikrni boshqa joyga qaratish ijro texnikasi o'stirishda foyda beradi deb hisoblash mumkin emas. Demak, texnikani o'stirish uchun ijro etiladigan gammalar, mashqlar paytida ham fikrni chalg'itmasdan bor e'tiborni ijroga qaratish lozim.

Ijro usullarini yaxshilash asarni yoki gamma, arpedjiolarni ravonligi va bir tekisda, tutilmasdan, to'xtamasdan ijro etish uchun bir qancha pryomlarni ishlatish maqsadga muvofiq. Bunga nuqtali usullarni kiritishimiz mumkin. Albatta buni asarlarda qo'llaganda har bir asarning notalar bo'linishidan kelib chiqib tanlash kerak. Yana bir muhim tomoni bir nuqtali usulni ko'p marotaba ketma-ket ijrosi teskari tarafga ishlashi mumkin yani bundan foda emas, aksincha zarar olish mumkin. Shuning uchun pryomlar bilan ishlaganda ular haqida ma'lumotlar va bilmlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuqori sinflarda ijro texnikasini oshirishda pedagoglardan bilim, e'tibor va har bir o'quvchiga alohida yondashuv ta'lab etiladi. Bunda pedagog o'quvchining kichik kamchiliklariga ham e'tibor qaratib, ualr ustida ishlashi lozim. Eng

muhimi o'quvchi o'zidagi kamchilikni ongli tushininb yetsagina uni bartaraf etib, fortepianoda ijro texnikasini yanda yaxshilashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Евгения Либерман" Работа над фортепианной техникой" (1971) 54 b
2. Нейгауз Г.Г. "Об искусстве фортепианной игры. Записки педагога". (1987) 102 b
3. Петрушин В.И. Музыкальная психология (2008) 88 b
4. Бирмак А. "О художественной технике пианиста" (1971) 100 b
5. Генрих Гермер - Как играть на фортепиано (1889) 64 b